

ISSN: 2181-3507

VOLUME-2, ISSUE-2



ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA

Scientific Journal Impact Factor: 5.541

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Iqtisod fanlari
Texnika fanlari
Tibbiyot fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Psixologiya fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
San'at va madaniyat fanlari

MART

2023/2

ILMIYTADQIQOT.UZ



PKP|INDEX

ISSN 2181-3507

2-TOM, 2-SON

MART 2023



<http://ilmiytadqiqot.uz/>

TAHRIR HAY'ATI:

Masalieva Oltinoy Masalieвна. Dotsent. Tarix fanlari nomzodi. Uzbekiston davlat jaxon tillari universiteti

Mavlyanov Aminjon. Dotsent, Fizika-matematika fanlari nomzodi, Astraxan' davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali.

Axmedova Muyassar Xadimatovna, dotsent TDPU, psixologiya kafedrası

Turgunova Aziza Tashpulatovna, Dotsent, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Xalqaro islom akademiyasi

Mamatova Yoqutxon, f.f.d., prof. O'zMU Jurnalistika fakulteti Jurnalistika kafedrası

Mirsoatova Mahliyo. dots., f.f.n., O'zMU Jurnalistika fakulteti

Abdusatarov Ramziddin Xayriddinovich dots., f.f.n., O'zMU Jurnalistika fakulteti Jurnalistika kafedrası.

Ibragimov Shavkat Mo'minovich. dots., f.f.n., O'zMU Jurnalistika fakulteti Jurnalistika kafedrası,

Xakimov Zafar Tulyaganovich, texnika fanlari doktori (DSS), Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangier filiali

Mamatov Mamajan Axmadjonovich, Dotsent, iktisodiet fanlari nomzodi. Toshkent davlat iktisodiet universiteti

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD) Farg'ona Davlat Universiteti

Rizaev Nurbek Kadirovich, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Rahimov Akmal Matyaqubovich. Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti

Jo'raev Isroil Ibrohimovich, Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Toshkent moliya instituti,

Qurbonov Rufat Baxtiyorovich, Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti,

Avazov Ilxom Ravshanovich, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent moliya instituti,

G'aniev Zafar Usanovich, Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti,

Davlatova Ra'no Xaydarovna, Dotsent (DSS), Navoiy davlat pedagogika instituti,

Yuldasheva Umida Asanaliyevna, Dotsent (PhD), Toshkent moliya instituti

Xojamkulova Yulduzoy Jaxonkulovna, O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi" laboratoriya mudiri, q.x.f.f.d. (PhD), Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti

Kodirova Nodira Ilyos kizi, Dotsent, Filologiya fanlar nomzodi, Uzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Zoxitova Nodira Xusan qizi, Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD) O'zMU Jurnalistika fakulteti

Bosh muharrir: Nazim Bo'ronov
Mas'ul muharrir: Nargiza Dusimbetova

TALABALARNING G‘OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
o‘qituvchisi Karimov Farxod**

**Master of Social Science, Senior Lecturer Department of Psychology
Nurgaliyeva Saule Mukhanovna, Karaganda University named after
Academician E.A. Buketov**

Annotasiya. Ushbu maqolada bugungi kunda talaba-yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar o‘rganilib mavjud muammo yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Mafkura, g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlig, adabiyoti universiteti.

Annotation. This article will talk about the pedagogical-psychological features of the development of ideological and ideological competence of student-youth today. Suggestions and recommendations will also be made on the existing problem with the study of scientific literature on the topic of this article.

Keywords: ideology, ideological-ideological kompetentlig, literature universibility.

KIRISH

“Mafkura” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib tor ma’noda qarashlar va e‘tiqodlar tizimi, majmui degan ma‘noni anglatadi. Keng ma’noda mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmuidir. G‘arb mamlakatlari tillarida mafkura “ideologiya” atamasi vositasida qo‘llaniladi” [1].

Mazkur tushunchaning tarixiy rivojiga e‘tibor qaratilsa, eng qadimgi davrlardan boshlab, barcha zamonlarda ham inson mohiyatida bunyodkor va vayronkor kuchning mavjudligi haqida turli nazariyalar ilgari surilgan. o‘zaro yakdillik bilan tasdiqlangan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy “odam” va “inson” tushunchalarini qiyoslash orqali mohiyatan mafkurani o‘ziga xos tarzda talqin qilgan: “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos “insoniylik”dir. Shuning uchun ham, odamlar

insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim” [2], deya ta’kidlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alisher Navoiy ham inson mohiyatidagi yaxshi va yomon “kuch”larni ifodalashda “ahli ma’ni” va “ahli suvrat” tushunchalaridan foydalangan [3]. Mutafakkir “Ahli ma’ni” deganda o‘z ehtiyojlarini o‘zgalarniki bilan uyg‘unlashtirgan, jamiyat uchun xizmat qilishdan lazzatlanadigan, har bir ishni oqibatini o‘ylab qiladigan yuksak ma’naviyat va tafakkur sohiblarini nazarda tutgan. “Ahli suvrat” toifasiga esa, insoniy munosabatlarda faqat shaklu shamoyilga muhim e’tibor beruvchi kishilarni kiritgan. Ularga viqorli bo‘lish, kibrlanish, zeb-ziynatga berilish, o‘zgalarga zulm o‘tkazishdan xuzurlanish xosdir. Bu toifadagi kishilar kuchlilar oldida qul, ojizlar uchun zulmkor. Ular o‘z e’tiqodsizliklari tufayli faqat bugungi kun huzur-halovati bilan yashaydilar, bu bilan u dunyolarini kuydiradilar [4, 80-81-b.], – deya ta’kidlagan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, g‘oya biz qurmoqchi bo‘lgan buyuk davlat, biz orzu qilib yashamoqchi turmush tarzi alomatlarini belgilab beradi. Zotan, millat o‘z strategik taraqqiyot g‘oyalariga, milliy tafakkuriga ega bo‘lmasa millat bo‘la olmaydi. Aniq, ravshan strategik vazifa bo‘lmasa, na biror xalq, na biror jamiyat o‘z istiqbolini ko‘ra olmaydi. Milliy g‘oya millat kelajagi, taraqqiyoti va istiqbolini oldindan ko‘rish va ilmiy fahmlashda katta o‘rin tutadi. Mafkura deyilganda, ijtimoiy ong maxsuli sifatida muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning dunyoqarashini ifodalaydigan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy yoxud boshqa tomondan tizimga solingan g‘oyalar, tamoyil va kategoriyalar yig‘indisi hamda ularning amaliyotga tatbiq etish yo‘llari, usul va vositalari majmuasini nazarda tutish lozim.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari bir-biriga turlicha nisbatda biz ko‘rib chiqayotgan kompetensiyaviy yondashuvning o‘ziga xos ma’noga ega kategoriyalari sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha turli qarashlar mavjud bo‘lib, xilma-xil dalillarga ega ko‘plab ta’riflari taklif qilingan. “Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini potensial – dolzarb, kognitiv – shaxsiy tavsif asosida ajratib ko‘rsatgan I.A.Zimnyaya fikriga ko‘ra, kompetentlik deganda biz “insonning bilimga asoslangan, intellektual va shaxsning ijtimoiy-kasbiy tavsifi sifatida dolzarb, shakllanayotgan shaxsiy sifat” [4, 32-b.] ekanligini tushunamiz. Agar biz kompetentlikni N.Xomskiy taklif qilganidek, qoidalar to‘plami sifatida, strukturani bilish tarzida [5] tushunsak (gap til haqida ketmoqda), unda bunday izoh bilan ko‘plab

tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, kompetentlikka asoslangan yondashuv bilim, ko'nikma va malaka talqinidan hech qanday farq qilmaydi.

Kompetensiyalar ta'limning maqsadini belgilashda mavjud an'anaviy tasavvurlar bilan kifoyalanmaslikni, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladigan tizim sifatida qarash bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etadi. Shu bilan birga mazkur tushuncha nazariya va amaliyotda yaqqol o'z ta'rifiga ega emas. Uning quyidagicha asosiy tavsifiy jihatlari ko'zga tashlanadi: "bilimlar tizimi", faoliyat tajribasi va motivasiya, muammolarga yechim topish qobiliyati ("sifatlar, xususiyatlar birligi") (E.F.Zeyer [6], A.V.Xutorskiy [7]), shaxsiy va kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlikning yuqori darajasi (O.Musurmonova) [7]).

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Kompetensiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni ta'lim-tarbiyaning maqsadi; ta'limning faoliyatga oid tarkibiy qismi, ta'limiy faoliyatning sifat ko'rsatkichi, kasb sohibining shaxsiy-individual qadriyatlari sifatida belgilanadi.

Kompetensiyalar – bu insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy va o'z-o'zini kasbiy jihatdan ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradigan xususiyatlar to'plamidir. Shunga ko'ra, kompetensiyalar bo'yicha "bilim" qanchalik mos va to'liq bo'lsa, odamlar turli sohalaridagi muammo va vazifalarni, ya'ni umuman sermahsul hayotiy faoliyatni hal qilishga shunchalik tayyor bo'ladilar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, zamonaviy ilm-fan darajasida "kompetensiya" tushunchasi nafaqat insonning faoliyatga tayyorligining operasion komponentini qamrab oladi (va shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga kirmaydi), balki uning ijtimoiy kontekstdagi ishlari va xatti-harakatlari, xulq-atvorining qadriyatli-motivasion asoslarini ochib beradigan qadriyatli komponentni ham o'z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, TUNING Yevropa ilmiy loyihasi kompetensiyalarning quyidagi universal strukturasini taklif etadi: 1) bilim komponenti (akademik sohadagi nazariy bilimlar, bilish va tushunish qobiliyati); 2) amaliy komponent (bilimlarni muayyan vaziyatlarga amaliy va operativ qo'llash); 3) qadriyatli komponent (qadriyatlar ijtimoiy kontekstda boshqalarni idrok etish usuli va sub'yekt hayotining ajralmas qismi sifatida, inson xulq-atvorining qadriyatli-motivasion asoslari) [6].

Kompetentlik psixologiyasining asoschisi, ingliz psixologi J.Raven "kompetentlik kompetensiyalar majmuidir" degan tushunchadan kelib chiqib, ularning ko'p sonli ekanligini ta'kidlagan. J.Raven kompetentlik komponentlarini insonlarning

tabiatidan qat'iy nazar, shaxsiy va kasbiy jihatdan muhim maqsadlarga erishishga imkon beradigan xususiyatlari hamda qobiliyatlari sifatida talqin qilgan [5].

Kompetentlik umumlashgan tavsifda: ta'limdagi va mustaqil kasbiy, ijtimoiy faoliyatda (tug'ma va rivojlantirilgan emas – ta'kid bizniki) muayyan kompetensiyalarni (kompetentlikning asosi, negizi sifatida) individual o'zlashtirish va ijodiy tarzda egallash yo'li orqali shaxsning yangidan shakllangan xislati, kasb sohibi bo'lgan fuqaroning fazilati. Bu professionalning (kasbiy yetuk shaxsning) hayotiy tajriba, amaliyot, mustaqil ta'lim orqali individual o'zlashtirilgan kompetensiyalar asosida yangi (kasbiy, ijtimoiy) shart-sharoitlarda ijodiy yondashib ish ko'rish sifatidir.

Maqola mavzusi bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish shuni ko'rsatdiki, 2016-yilgacha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda g'oyaviy-mafkuraviy immunitet masalasi falsafiy-pedagogik nuqtai nazardan keng o'rganilgan. Jumladan, mafkura tushunchasi, milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma'naviyati va milliy tarbiya muammolari M.Quronov, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari M.Bekmurodov, ijtimoiy-milliy ongliklik, faollik, milliy g'urur hamda iftixor tuyg'usini shakllantirishning asosiy manbalari bo'lgan milliy g'oyaning mohiyati I.Ergashev, X.Xudayberdiyev, A.Qahramonovlar, ma'naviyat hamda mafkura tushunchalarining uzviy bog'liqligi va aloqadorligi, mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalalari A.Ochildiyevlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Pedagog olimi Z.Qosimova o'zining "Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (Oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida "g'oyalar haqidagi bilimlar"ni mafkuraviy ko'nikmaning elementi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, tadqiqotchi "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy tarbiya" tushunchalarini keng qo'llagan holda, "g'oyaviy immunitet" atamasini hech bir o'rinda ishlatmaydi. Aslida, g'oyaviy immunitetni shakllantirish orqali mafkuraviy tahdidlarning oldini olish lozimligiga ishdan alohida e'tibor qaratilmagan.

B.Mirzaolimov "Yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari ("Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyada "g'oyalar tizimi mafkurani yaratadi", degan fikrga tayangan holda, mafkuraning aynanligini inkor etadi. Shu bilan birga, ularning o'zaro aloqadorligi va o'ziga xosligini e'tirof etgan holda, "g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim va tarbiya", "g'oyaviy-mafkuraviy bilim", "g'oyaviy-mafkuraviy faoliyat" tushunchalarini keng qo'llagan.

Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslarini tadqiq etgan A.Muxsiyeva o'z tadqiqotida "milliy mafkuraviy onglilik" tushunchasini qo'llagan. Biroq milliy istiqloliy fazilatlar masalasini yoritish jarayonida muallif mafkuraviy immunitet asoslarining mezoniy tavsifini bayon etgan. Tadqiqotda "mafkuraviy onglilik", "mafkuraviy immunitet" tushunchalarini qo'llashda yakdillik ko'zga tashlanmaydi. Tadqiqotchida mazkur masala talqinida ikkilanish borligi anglanadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, tadqiqotning maqsadi oilada milliy tarbiya jarayonini tashkil etish masalasiga qaratilganligi uchun ham, mazkur masalani chuqur tahlil etish ehtiyoji paydo bo'lmagan bo'lishi mumkin.

M.Tadjiyevaning "Pedagogika kollejlari o'quvchilarini milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash metodlari tizimi" deb nomlangan tadqiqotida o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi, ya'ni milliy qadriyatlar, milliy ma'naviyat asosida tarbiyalashning interfaol metodlarini qo'llash tajribasi ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, "g'oya" va "mafкура" tushunchalarining mohiyatini ochib berish, "milliy istiqlol g'oyasi" atamasiga mualliflik yondashuvi asosida ta'rif berishga e'tibor qaratilmagan" [8, 135-b.].

M.Abdujabborovanning "O'smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari (mahalla fuqarolari yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari faoliyati misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida esa, "g'oya" va "mafкура" tushunchalari tahlil etilmagan. Muallif tomonidan "mahalla mafkurasi" tushunchasi qo'llanilgan va quyidagicha ta'rif berilgan: "mahalla mafkurasi – bu bir mahalla a'zolariga xos nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui. U mahalla ma'naviy-siyosiy mohiyatining in'ikosidir, uning ijtimoiy-pedagogik aks ettirilishi, bir butun tizim holiga keltirilishi buzg'unchi g'oyalarga qarshi tayanchni hosil qiladi" [4, 135-b.].

H.Norqulovning "Ota-onalarning g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari" mavzusidagi dissertasiyasida "dindosh", "millatdosh", "beg'araz yordam" niqobi ostidagi yot g'oyalardan o'quvchi-yoshlarni himoya qilishga doir ota-onalarning g'oyaviy bilimlarini oshirish masalasi [8, 134-b.] tadqiq etilgan bo'lib, tadqiqotchi tomonidan "g'oya", "mafкура", "g'oyaviy-tarbiya" tushunchalariga biror-bir ta'rif ko'zga tashlanmaydi. Tadqiqotda g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarni oshirish haqida fikr yuritilar ekan, ota-onalarda g'oyaviy-tarbiyaviy bilim bo'lishi mumkinligi, lekin ularning bu bilimlarni kundalik faoliyatda qo'llash layoqatiga egaligini aniqlash e'tibordan chetda qoldirilgan.

G.Ibragimova “Kasb ta’limi tizimida milliy istiqlool g’oyasi asosida o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini shakllantirish” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida g’oya inson maqsad-muddaosini ifodalaydigan fikr, mafkura esa, g’oyalar tizimi sifatida talqin etilgan [7, 16-b.]. Mazkur holatda ham “mafkura” g’oyaviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiluvchi shakl, metod va vositalar majmui ekanligiga e’tibor qaratilmagan.

Sh.Akramovanning “Bo‘ljak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida pedagogik tadqiqotlardagi g’oyaviy immunitet tushunchasining o‘rniga “mafkuraviy immunitet” atamasini qo‘llash an‘anasi davom ettirilgan. Dissertasiya mazmunida bojxona xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liqlikda “mafkuraviy kompetensiya” masalasining ustuvor ahamiyat kasb etganligini ko‘rish mumkin [6, 16-19-b.].

Biroq, falsafa sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda milliy g’oya, milliy istiqlool g’oyasi, milliy taraqqiyot g’oyasi kabi tushunchalardagi umumiylik va ayrimlikni falsafiy tahlil etish, milliy g’oya va milliy mafkura tushunchalarini aynan bir ma’noda talqin etish ilmiylikka xilof ekani ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, M.Tillavoldiyevaning “Mafkura va ijtimoiy taraqqiyot: o‘zaro aloqadorlik (falsafiy tahlil)” deb nomlangan nomzodlik dissertasiyasida “mafkura nafaqat g’oyalar tizimi, balki, ayni chog‘da u bosh va asosiy g’oyalarni odamlar ongiga singdirish, ma’lum bir yo‘nalishdagi dunyoqarashni individlar imon-e’tiqodiga aylantirib, ya’ni umumiy harakatni vujudga keltiradigan ijtimoiy institutlar, vositalar, uslublar majmuasidir” [7, 160-b.], degan haqli xulosaga kelingan.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, pedagogik tadqiqotlarda g’oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni mafkuraviy immunitet va profilaktika bilan bog‘liqlikda talqin etishga alohida e’tibor qaratilgan. Milliy g’oya zamonaviy talqinda sosial kapitalni, ya’ni “xalqni uyushgan harakatga keltiruvchi normalar, norasmiy qadriyatlar majmui”, degan ma’noga ham ega. Shu ma’noda milliy g’oya va mafkura O‘zbekiston xalqining umumiy maqsadga erishish resurslarini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism /M.X.To‘xtaxo‘jayeva va boshq. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 379 b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig /So‘z boshi muallifi B.To‘xliyev; rassom Sh.Muhammadjonov. – T.: Yulduzcha, 1989. – 192 b.
3. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. – 397 b.

4. Nazarov Q. Gʻarb falsafasi. – T.: Oʻzbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 719 b.
5. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования / Э.Ф. Зеер, Э. Сыманюк // Высшее образование в России. – 2005. – № 4. – С. 25.
6. Ипполитова Н.В. Анализ понятия "Педагогические условия": сущность, классификация / Н.В. Ипполитова, Н.С. Стерхова // General and Professional Education. –2012. – № 1. – С.8-14.
7. Кондаков Н.И. Логический словарь-справочник. – М., Наука, 1999. – 203 с.
8. Курбатцкий А.И., Листопад Н.И., Воротницкий Ю.И. Информационные технологии в системе высшего образования. Информатика и образование. – М., 1999. – №3. – С.21.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	DAVLAT HOKIMIYATI BOSHQARUV ORGANLARI OCHIQLIGINI TA'MINLASHDA PR XIZMATINING VAZIFALARI <i>Odilova Dilorom</i> Page No.: 4-8
2	
	ТИЛ ВА НУТҚ МАДАНИЯТИ <i>Ҳайитова Зилола</i> Page No.: 9-14
3	
	ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ШАХСНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БАҲОЛАШ ХУСУСИЯТИНИ ШАКЛЛАНИШИ <i>Авлакулов Бобир</i> Page No.: 15-20
4	
	ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТИЛДАГИ ЎЗГАРИШЛАРГА ТАЪСИРИ <i>Ахмедова Муяссар</i> Page No.: 21-26
5	
	NAPORLI PLASTMASSA QUVURLARDA GIDRAVLİK ISHQALANISH KOEFFITSIENTI <i>Raximov Qudratjon</i> Page No.: 27-33
6	
	ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНОПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИГА ХОС САЛБИЙ УСТАНОВКАЛАРНИНГ ОИЛАДАГИ ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИ <i>Нодира Мамасадиқова</i> Page No.: 34-38
7	
	POLINOMAL DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASINI TADQIQLASHDA INNORLARNI QO'LLANISHI. <i>Qobilova Dildora</i> Page No.: 39-44

8

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ ТРУБОПРОВОДОВ В СИСТЕМЕ АО «УЗТРАНСГАЗ»*Эшкobilov Жамшид***Page No.: 45-51**

9

KRIPTAVALYUTANING ISHLASH MEKANIZMI, IQTISODIYOTGA TA'SIRI, AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI*Kenjaeva Durdona***Page No.: 52-57**

10

NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH*Qobilov Feruz, Raxmonov Erkinjon***Page No.: 58-63**

11

MILLIY TELERADIOKANALLARDA CHET TILLARDA UZATILADIGAN AXBOROT TAHLILI*Jo'raqulov Navro'zbek***Page No.: 64-69**

12

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РКИ*Ахмедова Мадинабону***Page No.: 70-76**

13

MIQDOR TUSHUNCHALI MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI*Turobjonova Dilrabo***Page No.: 77-81**

14

СИЁСИЙ ПАРТИЯ НАШРИ ПАРТИЯ МАФКУРАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ТАРҒИБОТЧИСИ*Эминова Яшна***Page No.: 82-94**

15

RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI*Raxmonov Erkinjon, Qobilov Feruz, Berdimuradov Xasan***Page No.: 95-101**

BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA JANRNING O‘RNI <i>Tilakova Maftuna</i> Page No.: 102-106	16
ТИЛШУНОСЛИКДА ТУРИЗМ ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ <i>Назарова Ирода</i> Page No.: 107-113	17
TALABALARNING G‘OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Karimov Farxod, Nurgaliyeva Saule, E.A. Buketov</i> Page No.: 114-120	18
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI DELTA TUPROQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>A.Q. Jetpisbayeva, G.T.Djalilova, O.D.Raximbayev</i> Page No.: 121-127	19